

ORKETSR SINFI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i01.014>

Abullayev Abdujabbor-o'g'li Zuhridin
Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada orkestr sinfi darslarini tashkil etishda qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik metodlar, ularning samaradorligi hamda milliy cholg'ular orkestri misolida o'quvchilar ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirishda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, orkestr sinfi darslarida innovatsion yondashuvlardan foydalanishning afzalliklari, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi metodik taklif va tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: orkestr sinfi, pedagogik texnologiya, ansambl, milliy cholg'ular, ijrochilik ko'nikmalari, musiqiy ta'lim, metodika, motivatsiya, innovatsion yondashuv

MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES IN ORCHESTRA CLASSES: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Abullayev Abdujabbor-oglu Zuhridin
Kokand State University

Abstract: The article analyzes modern pedagogical methods used in organizing orchestral classes, their effectiveness, and the problems arising in the formation of students' performance skills using the example of an orchestra of national instruments. Also, the advantages of using innovative approaches in orchestral classes, methodological proposals and recommendations that serve to improve the quality of education are presented.

Keywords: orchestra class, pedagogical technology, ensemble, national instruments, performance skills, musical education, methodology, motivation, innovative approach

Bugungi kunda madaniyat va san'at ta'limi tizimida ijrochilik madaniyatini shakllantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri bu - orkestr sinfi darslarini samarali tashkil etishdir. Orkestr darsi o'quvchi yoki talabaga nafaqat cholg'uda ijro qilishni, balki ansamblda fikrlash, jamoaviy mas'uliyat, musiqa asarining ichki

dramatizmi va ifoda chiziqlarini anglash kabi qator kasbiy sifatlarni rivojlantirish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'lim jarayoni orkestr darslarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishni talab qilmoqda. Chunki bugungi yosh avlodning musiqiy dunyoqarashi, axborot maydoni, estetik didi va ehtiyoji avvalgi davrlarga nisbatan katta farq qiladi. Shu bois o'qituvchi faoliyatida innovatsion metodlar, ijodiy motivatsiya, raqamli platformalar va metodik yangilanishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, orkestr sinflarida hali ham bir qator dolzarb muammolar mavjud: metodik materiallar yetishmasligi, zamonaviy dars modeli ishlab chiqilmagani, o'quvchilarni ansambl ruhida fikrlashga yo'naltirishning sustligi, milliy orkestr repertuarining kamligi, cholg'ular sifatining pastligi va kadrlar masalasi shular jumlasidandir. Shuning uchun mazkur maqolada orkestr sinfi darslarining hozirgi holati tahlil qilinib, takomillashtirish yo'llari bo'yicha aniq pedagogik yechimlar taklif etiladi.

Orkestr sinfi - bu musiqiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni jamoa bo'lib ijro etishga o'rgatish, ansambl tuyg'usini shakllantirish va professional ijrochilik malakalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus dars shaklidir. U individual darslardan farqli ravishda, o'quvchilarni birgalikda eshitish, musiqiy fikrlash, intonatsion uyg'unlik va ijro fe'l-atvorini boshqarishga o'rgatadi.

Orkestr sinfining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Jamoaviy ijrochilikni shakllantirish - har bir ijrochining yakka emas, orkestr a'zosi sifatidagi mas'uliyatini kuchaytirish;
2. Musiqiy eshituv va ansambl madaniyatini rivojlantirish;
3. Repertuar orqali milliy va jahon musiqiy merosini o'zlashtirish;
4. O'quvchini kelgusidagi sahna faoliyatiga tayyorlash;
5. Ijroda intonatsiya, ritm, dinamik va tembr uyg'unligini nazorat qilishni o'rgatish.

Milliy cholg'ular orkestri ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Zero, u nafaqat cholg'ular texnikasini o'rgatadi, balki milliy musiqiy tafakkurni, urf-odatni, xalqona ohang va usullarni dars jarayoni orqali yosh avlodga singdiradi. Bu jihat orkestr sinfini madaniy merosni uzluksiz yetkazuvchi platforma sifatida ham muhim qiladi. Shuningdek, orkestr sinfi o'qituvchisi nafaqat dirijor, balki psixolog, motivator, metodist va tashkilotchi bo'lishi lozim. Chunki orkestr darsi individual emas, balki 20-30 nafargacha ijrochini bir vaqtning o'zida boshqarishni talab qiladi. Bu esa o'qituvchidan yuqori darajadagi pedagogik mahorat, zamonaviy metodlar va jamoa bilan ishlash ko'nikmasini talab etadi.

Orkestr sinfi fanida quyidagi metodlardan foydalanish darkor:

Interfaol metodlar (klaster, "rol almashish", "ijro tahlili", "tinglash - baholash - ijro")

Raqamli ta'lim vositalari (metronom ilovalari, orkestr partitura dasturlari, onlayn mashqlar).

“Bosqichma-bosqich ansamblash” metodikasi.

Repetitsiya jarayonida motivatsiya texnologiyalari.

O‘quvchilarning partiya mas’uliyatini tarbiyalash.

Milliy cholg‘ular orkestri uchun mos metodik yondashuvlar.

Bugungi kunda orkestr sinfi darslarini samarali tashkil etish uchun an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur. Bu metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ijro jarayonini interaktivlashtiradi va mashg‘ulotlarni biryoqlama takroriy repetitsiya emas, balki rivojlantiruvchi ta’lim shakliga aylantiradi.

Orkestr darsida quyidagi metodlar muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin:

1. Interfaol metodlar.

Metod nomi Maqsadi Orkestrdagi qo‘llanishi

“Rol almashish” Ijrochining boshqacha pozitsiyada fikrlashini shakllantirish qashqar rubob partiyasini ijro qilayotgan o‘quvchi nay partiyasini tinglab tahlil qiladi.

“Ijro tahlili” Tovush va ifodaning ongli ravishda baholanishi Orkestr ijrosidan so‘ng muhokama va o‘z-o‘zini tahlil qilish.

“Jamoaviy baholash” Ijro mas’uliyatini oshirish O‘quvchilar bir-birining ijrosini baholash orqali ansambl intizomiga erishadi.

“Qisqa-davrlı ijro topshiriqlari” Tezkor moslashuv va diqqatni jamlash Dirijor signali bilan ritm, dinamik, tempiya almashtirish mashqlari.

Bu metodlar orkestrni “dars - buyruq - takrorlash” modelidan chiqarib, ijodiy hamkorlik muhitini yuzaga keltiradi.

2. Raqamli vositalar va texnologik yondashuvlar.

Zamonaviy orkestr darsida quyidagi texnologiyalar samaradorlikni oshiradi:

Mobil metronom va tuner ilovalari - umumiy ritm va sozlash aniqligini oshiradi.

YouTube / Soundcloud / Spotify orkestr namunalari - tinglash va tahlil uchun.

Muscore, Sibelius, Finale kabi nota dasturlari - partiya tayyorlash va orkestrlashtirishda yordam beradi.

“Sekvensor orqali repetitsiya” usuli - o‘quvchilar orkestrsiz mustaqil mashq qilishi uchun orqa fon sifatida qo‘llanadi.

Bu vositalar orkestr jarayonini nafaqat osonlashtiradi, balki o‘quvchilarni hozirgi davr talablariga mos musiqa mutaxassisi sifatida shakllantiradi.

3. Bosqichma-bosqich ansamblash metodikasi.

Orkestrda ijrochilikni birdaniga emas, balki quyidagi ketma-ketlikda shakllantirish tavsiya etiladi:

Shaxsiy partiya ustida ishlash (yakkanavoz mashq);

Guruh bo‘lib mashq (torlilar alohida, puflamalar alohida va h.k.);

Yarim orkestr bilan mashq;
To'liq orkestr bilan repetitsiya;
Sahna oldi sinovi.

Bu metod "avval shaxsni shakllantir, keyin orkestrni" tamoyiliga asoslanadi.

4. Motivatsion yondashuvlar

Orkestr darsida o'quvchi faolligini oshirish uchun:

Partiya ichidagi "yetakchi o'quvchi" lavozimini joriy etish;

O'quvchilarni kichik konsertlarda ishtirok ettirish;

Mukofot / rag'bat tizimini yo'lga qo'yish;

Repertuarga o'quvchilarning sevimli kuylarini kiritish.

Bu usullar ijro jarayoniga qiziqishni oshiradi, orkestrni faqat nazariy dars emas, "jonli ijodiy makon"ga aylantiradi.

Orkestr sinfi darsida uchraydigan muammolar ham bor albatta. Cholg'u asboblari yetishmasligi yoki yaroqsizligi, metodik qo'llanmalar va partituralar tanqisligi, o'quvchilar motivatsiyasi pastligi, zamonaviy pedagog-mutaxassislar kamligi, xalq cholg'ulari orkestri repertuarining yetarli emasligi, raqamli resurslardan foydalanishning sustligi, sinflarda ovoz izolyatsiyasi, akustika, joylashuv muammosi shular jumlasidan.

Orkestr sinfi darslarini tashkil etish jarayonida bir qator tizimli va metodik muammolar mavjud bo'lib, ular nafaqat ta'lim sifatiga, balki kelajak ijrochilarning kasbiy shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Quyida hozirgi holat tahlili asosida eng dolzarb muammolar yoritiladi.

1. Asboblarning bazasi va texnik ta'minot yetishmasligi:

Ko'plab ta'lim muassasalarida milliy cholg'ular orkestri uchun zarur bo'lgan cholg'ular soni yetarli emas. Ayrımlari yaroqsiz holatda, ohang balansi buzilgan yoki professional ijro talablariga javob bermaydi. Bu holat o'quvchilarning to'g'ri tovush hosil qilishi, orkestrda tembr uyg'unligi va yakuniy ovoz sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Metodik qo'llanmalar va zamonaviy repertuar tanqisligi:

Mavjud o'quv qo'llanmalari ko'pincha eskirgan, amaliyotga mos emas yoki orkestrning hozirgi shakliga to'liq moslashtirilmagan. Shuningdek: milliy cholg'ular orkestri uchun yangi aranjirovkalar yetarli emas yoshlar didiga mos repertuar juda kam o'quvchi darajasiga mos bosqichma-bosqich repertuar tizimi yo'q. Bu esa dars jarayonini takroriy, qiziqarsiz va o'quvchi uchun motivatsiyasiz holga keltiradi.

3. Kadrlar masalasi

Orkestr sinfini olib boruvchi pedagoglardan yuqori darajadagi dirijorlik, metodika, psixologik boshqaruv, ansambl akustikasi, cholg'ushunoslik bilimlari talab etiladi. Afsuski, ko'plab ta'lim muassasalarida bunday kompleks malakaga ega bo'lgan mutaxassislar yetarli emas. Shuning uchun: darslar ko'proq repetitsion

xarakterga ega bo'lmogda dars jarayonida pedagogik texnologiyalar kam qo'llanadi jamoa ruhini shakllantirishga e'tibor sust.

4. O'quvchilarda ansambl mas'uliyati va ichki intizomning pastligi

Yakka darslarga o'rganib qolgan ijrochilar orkestr darsida: no'z partiyasidan tashqaridagi temblarni eshitmaydi ovoz balansi va dinamikani nazorat qila olmaydi "men emas - biz" tamoyiliga o'ta olmaydi. Bu esa pravtika jarayonida ansambl intonatsiyasini buzadi, tempiyani beqarorlashtiradi va umumiy ijro madaniyatini sustlashtiradi.

5. Raqamli va audiovizual resurslardan foydalanishning sustligi

Zamonaviy orkestr darsi uchun quyidagilar tabiiy bo'lishi kerak: audio yozuvlar bilan ishlash professional orkestr ijrolarini tahlil qilish onlayn repetitsiya va virtual dirijor dasturlari metronom va intonatsiya simulyatorlari kabilar. Ammo hozirgi paytda ko'plab o'qituvchilar bu vositalardan foydalanmaydi yoki ulardan bexabar.

6. Xona akustikasi va dars sharoitlaridagi muammolar

Ba'zi ta'lim muassasalarida: orkestrga mo'ljallanmagan kichik sinflarda dars o'tiladi tovush aks-sadosi noto'g'ri, akustik balansi buziladi asbob joylashuvi ilmiy asosda tashkil qilinmagan o'quvchilarni eshitish va ko'rish zonalarini to'g'ri taqsimlanmagan. Bu esa hatto yaxshi orkestrni ham tovush jihatdan "zaif" ko'rsatadi.

Orkestr sinfi musiqiy ta'lim tizimining ajralmas bo'g'ini bo'lib, u nafaqat ijrochilik malakasini shakllantiradi, balki o'quvchilarda jamoaviy fikrlash, mas'uliyat, sahna madaniyati va milliy musiqiy tafakkurni tarbiyalaydi. Orkestr mashg'ulotlari orqali yosh avlod musiqa san'atining nazariy va amaliy jihatlarini birgalikda anglaydi, o'z ijrosini boshqalarniki bilan uyg'unlashtirishni o'rganadi va professional sahnaviy tajribaga ega bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etish orkestr sinfining samaradorligini yanada oshiradi. Bunda o'qituvchi faqat dirijor emas, balki tashkilotchi, psixolog, motivator va metodist sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Milliy cholg'ular orkestri esa ta'lim jarayonida ikki tomonlama vazifa bajaradi: birinchisi - professional ijrochi tayyorlash, ikkinchisi - milliy musiqiy merosni avlodlardan avlodga yetkazish. Shuning uchun orkestr darslarida repertuar tanlovi, ijro uslubi va metodik yondashuvlar xalqona ohang, usul va lad xususiyatlariga mos bo'lishi shart.

Shu asosda aytish mumkinki:

Orkestr sinfi - musiqiy ta'limning amaliy laboratoriyasi;

U yosh ijrochida eshituv, ansambl, intonatsiya va sahna madaniyatini shakllantiradi;

Zamonaviy metodlar va texnologiyalarni qo'llash dars sifatini sezilarli ravishda oshiradi;

Milliy cholg'ular orkestri - madaniy identitetni jonli saqlovchi ta'lim maydonidir.

Demak, orkestr sinfini takomillashtirish - nafaqat musiqiy pedagogikaning, balki milliy madaniyatning kelajagini ta'minlashga qaratilgan dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'rayev A. Orkestr va ansambl mashg'ulotlarida pedagogik yondashuvlar. - Toshkent: San'at, 2019. - 164 b.
2. Abdullayev Z. Milliy cholg'ular orkestrida repertuar tanlash tamoyillari. // "Musiqqa ta'limi" ilmiy jurnali. - 2023. - №4. - B. 45-52.
3. Islomov D. Doira ijrochiligi metodikasi. - Farg'ona: Al-Farobiy nashriyoti, 2020. - 112 b.
4. Azimov K.T. Dirijyorlik san'ati asoslari. - Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 2016. - 228 b.
5. Ibrohimov O. Maqom va cholg'u ijrochiligi. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2018. - 302 b.
6. Xamrakulov N. Musiqiy ta'lim metodikasi. - T.: Fan va texnologiya, 2021. - 187 b.
7. Shmidt E. "Pedagogy of Orchestral Training". - Berlin: Springer, 2017. - 241 p.
8. Campbell, P. Teaching Music Globally: Multicultural Perspectives. - Oxford University Press, 2018. - 284 p.
9. UNESCO. Intangible Cultural Heritage List: Traditional Music and Instruments. - Paris, 2022.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5249-sonli Farmoni. "Musiqqa va san'at ta'limi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
11. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.